

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASPIY KOMPETENSIYASINI INGLIZ TILIDAGI OG'ZAKI NUTQ ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yusupov Rajab Rasul o'g'li

Uzbekistan State World Languages University, Faculty of English Philology

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini ingliz tilidagi og'zaki nutq faoliyati asosida rivojlantirish metodikasi yoritiladi. Unda talabalarning kommunikativ, lingvistik, metodik va pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishda og'zaki nutq mashqlarining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilida erkin fikr bildirish, kasbiy vaziyatlarda muloqotga kirishish, dars jarayonida nutqiy faollikni oshirish va pedagogik muloqotni samarali tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, kasbiy kompetensiya, og'zaki nutq, kommunikativ kompetensiya, metodik tayyorgarlik, pedagogik muloqot.*

Аннотация: *В данном исследовании освещается методика развития профессиональной компетенции будущих учителей английского языка на основе устной речевой деятельности на английском языке. В работе анализируется роль устных речевых упражнений в формировании коммуникативной, лингвистической, методической и педагогической компетенций студентов. Особое внимание уделяется развитию умения свободно выражать мысли на английском языке, вступать в общение в профессиональных ситуациях, повышать речевую активность в процессе урока и эффективно организовывать педагогическое общение.*

Ключевые слова: *будущие учителя английского языка, профессиональная компетенция, устная речь, коммуникативная компетенция, методическая подготовка, педагогическое общение.*

Abstract: *This study discusses the methodology for developing the professional competence of future English language teachers through oral speech activity in English. The research analyzes the role of oral speech exercises in forming students' communicative, linguistic, methodological, and pedagogical competencies. Special attention is paid to developing the ability to express ideas fluently in English, communicate in professional situations, increase speech activity during lessons, and organize effective pedagogical communication.*

Key words: *future English language teachers, professional competence, oral speech, communicative competence, methodological training, pedagogical communication.*

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini mukammal o'rganish va o'rgatish masalasi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga

aylangan. Ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, axborot texnologiyalari, ta'lim, madaniyat va kasbiy faoliyatning ko'plab sohalarida keng qo'llanilayotganligi sababli uni o'qitish sifati bevosita zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash, ularning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy nutqiy ko'nikmalarini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi keng mazmunga ega bo'lib, u tilni bilish, undan to'g'ri va samarali foydalanish, o'quvchilar bilan pedagogik muloqot o'rnatish olish, dars jarayonini metodik jihatdan tashkil etish, ta'limiy vaziyatlarda mos qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, ingliz tilidagi og'zaki nutq kompetensiyasi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida alohida o'rin tutadi. Chunki til o'qituvchisi dars jarayonida ko'proq og'zaki muloqot orqali tushuntiradi, savol-javob qiladi, topshiriqlar beradi, o'quvchilarni suhbatga jalb etadi va ularning nutqiy faolligini boshqaradi.

Og'zaki nutq bo'lajak o'qituvchining kommunikativ madaniyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ingliz tilida erkin, ravon va mazmunli gapirish olish o'qituvchining o'z faniga bo'lgan ishonchini oshiradi, dars samaradorligini kuchaytiradi hamda o'quvchilarda ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Shu bilan birga, og'zaki nutq faqat so'zlashuv malakasi bilan cheklanmaydi. U talaffuz, grammatik to'g'rilik, lug'at boyligi, mantiqiy fikrlash, vaziyatga mos nutq tanlash, tinglovchi bilan muloqot o'rnatish va pedagogik ta'sir ko'rsatish kabi bir qator jihatlarni ham qamrab oladi.

Hozirgi ta'lim jarayonida ingliz tili o'qituvchilaridan faqat darslik asosida bilim berish emas, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muloqot qilishga, amaliy vaziyatlarda tildan foydalana olishga o'rgatish talab etilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda og'zaki nutqqa asoslangan metodik yondashuvlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Dialoglar, monologik chiqishlar, rolli o'yinlar, taqdimotlar, muammoli vaziyatlar, interaktiv mashqlar, kichik guruhlarda ishlash va kasbiy muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar bu jarayonda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday faoliyat turlari talabalarning nafaqat til ko'nikmalarini, balki pedagogik fikrlashini, ijodkorligini, tashabbuskorligini va kasbiy mas'uliyatini ham rivojlantiradi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki ingliz tili o'qituvchisi faqat til qoidalarini biluvchi mutaxassis emas, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot qila oladigan, dars jarayonini kommunikativ yondashuv asosida tashkil eta oladigan va ingliz tilidan real nutqiy vaziyatlarda foydalana oladigan pedagog bo'lishi kerak. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ingliz tilidagi og'zaki nutq faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Kommunikativ kompetensiya nazariyasida tilni bilish faqat grammatik qoidalarni egallash bilan cheklanmasligi, balki undan ijtimoiy va nutqiy vaziyatlarga mos holda foydalana olish zarurligi ta'kidlanadi [1]. Bu fikr bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun juda muhimdir. Chunki ular kelajakda o'quvchilarga faqat grammatik bilim beribgina qolmay, balki ularda ingliz tilida erkin muloqot qilish malakasini ham shakllantirishi kerak bo'ladi.

Masalan, talaba "Present Simple" zamonini nazariy jihatdan yaxshi bilishi mumkin. Ammo u ushbu grammatik shakldan dars jarayonida tabiiy nutqda foydalana olmasa, uning kasbiy-kommunikativ tayyorgarligi yetarli darajada shakllangan deb bo'lmaydi. Shuning uchun mashg'ulotlarda quyidagi kabi amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Misol: Talabalarga "Describe your daily teaching routine" mavzusida 1–2 daqiqalik og'zaki nutq tayyorlash topshiriladi. Bunda ular quyidagi gaplardan foydalanishi mumkin:

I usually begin my lesson with a warm-up activity. Then I explain the new topic and ask students some questions. I try to make my lesson interesting and useful. Ushbu topshiriq orqali talaba grammatik birlikni amaliy nutqda ishlatadi, o'qituvchilik faoliyatiga oid so'z boyligini kengaytiradi va kasbiy vaziyatda ingliz tilida fikr bildirishga o'rganadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda og'zaki nutq mashqlarining turli shakllaridan foydalanish zarur. Jumladan, dialog, monolog, rolli o'yin, taqdimot, bahs-munozara, muammoli vaziyat va interaktiv savol-javoblar samarali metodik vositalar hisoblanadi. Canale va Swain kommunikativ kompetensiyani grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlar bilan bog'lab tushuntiradi [2].

Og'zaki nutq asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda rolli o'yinlar alohida o'rin tutadi. Rolli o'yinlar talabalarga kelajakdagi pedagogik vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish, ularda ingliz tilida harakat qilish va o'z nutqini kasbiy vazifaga moslashtirish imkonini beradi. Richards va Rodgers kommunikativ yondashuvda til o'rganish jarayoni real muloqotga yaqin vaziyatlar orqali tashkil etilishi muhimligini ko'rsatadi [3]. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga quyidagi turdagi rolli topshiriqlar berilishi mumkin:

Misol: Bir talaba o'qituvchi, ikkinchi talaba esa darsga tayyorlanmagan o'quvchi rolini bajaradi. O'qituvchi rolidagi talaba vaziyatni ingliz tilida boshqarishi kerak.

Teacher: Why didn't you do your homework?

Student: I'm sorry, I didn't understand the task.

Teacher: That's okay. Next time, you can ask me for help. Let me explain it again.

Bu topshiriq orqali talaba nafaqat ingliz tilida gapiradi, balki pedagogik vaziyatni yumshoq, madaniyatli va kasbiy jihatdan to'g'ri boshqarishga ham o'rganadi. Natijada uning kommunikativ, metodik va pedagogik kompetensiyalari birgalikda rivojlanadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda taqdimotlar ham samarali vosita hisoblanadi. Taqdimot tayyorlash jarayonida talaba mavzuni mustaqil o'rganadi, asosiy fikrlarni ajratadi, nutq rejasini tuzadi va auditoriya oldida fikrini ingliz tilida bayon qiladi. Bu esa uning kasbiy o'ziga ishonchini oshiradi. Masalan, talabalarga "Effective ways of teaching speaking skills" mavzusida qisqa taqdimot tayyorlash topshirilishi mumkin.

Misol: Good morning everyone. Today I want to talk about effective ways of teaching speaking skills. In my opinion, students should speak more during the lesson. Teachers can use pair work, group discussion, role plays and picture description activities. These methods help students become more active and confident.

Bunday mashqlar talabalarning ingliz tilida izchil, mantiqiy va auditoriyaga mos nutq tuzish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ayniqsa, kelajakda dars tushuntirish, seminar olib borish, savollarga javob berish va o'quvchilar faoliyatini boshqarishda bu ko'nikmalar juda zarur bo'ladi.

Og'zaki nutqni rivojlantirishda talaffuz, intonatsiya va nutq ravonligiga ham alohida e'tibor berish kerak. Ingliz tili o'qituvchisi so'zlarni aniq talaffuz qilishi, gap urg'usini to'g'ri qo'yishi va o'quvchilar uchun tushunarli nutq namunasi bo'la olishi zarur. Harmer til o'qitishda o'qituvchi nutqining aniqligi, tushunarligi va o'quvchi darajasiga mos bo'lishi muhimligini ta'kidlaydi [4]. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilar bilan fonetik mashqlar, ovoz chiqarib o'qish, dialoglarni jonli ijro etish, audio materiallarni tinglab takrorlash kabi topshiriqlar muntazam olib borilishi lozim.

Misol:

Talabalarga quyidagi iboralarni turli intonatsiyada aytish topshiriladi:

Could you repeat, please?

Excellent answer!

Let's work in pairs.

Open your books, please.

Who wants to answer?

Bu mashq orqali talabalar o'qituvchi nutqiga xos bo'lgan buyruq, iltimos, rag'bat, savol va tushuntirish ohanglarini farqlashni o'rganadilar. Natijada ularning nafaqat talaffuzi, balki pedagogik nutq madaniyati ham rivojlanadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ham katta ahamiyatga ega. Chunki real dars jarayonida o'qituvchi har doim ham oldindan rejalashtirilgan holatlar bilan ishlamaydi. Ba'zan o'quvchi mavzuni tushunmaydi, darsda faollik pasayadi, guruhda tartib buziladi yoki o'quvchilar ingliz tilida gapirishdan tortinadi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi tezkor, mos va samarali nutqiy yechim topishi kerak. Masalan, Talabalarga quyidagi vaziyat beriladi: "Siz ingliz tili darsidasiz. O'quvchilar gapirishni xohlamayapti. Siz ularni muloqotga jalb qilishingiz kerak." Talabalar ushbu vaziyat bo'yicha ingliz tilida o'qituvchi nutqini tuzadilar:

Let's start with an easy question. You don't need to speak perfectly. Just try to share your idea. You can work with your partner first, and then tell us your answer.

Bu kabi mashqlar talabalarda pedagogik muammoni ingliz tilida hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular o'quvchilarga ruhiy yordam berish, ularni rag'batlantirish va darsga jalb qilish usullarini ham o'zlashtiradilar. Interaktiv metodlardan foydalanish ham og'zaki nutq asosida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim shartidir. Juftlikda ishlash, kichik guruhlarda muhokama qilish, "question-answer chain", "think-pair-share", "debate", "information gap" kabi topshiriqlar talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Bunday topshiriqlarda talaba tinglovchi emas, balki faol nutq ishtirokchisiga aylanadi.

Masalan, "information gap" mashqida bir talabada ma'lumotning bir qismi, ikkinchi talabada esa boshqa qismi bo'ladi. Ular ingliz tilida savol-javob qilish orqali to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar. Bu mashq kelajakdagi o'qituvchilar uchun ikki jihatdan foydalidir: birinchidan, ular o'zlari og'zaki nutqni mashq qiladilar; ikkinchidan, keyinchalik bu metodni o'z darslarida qo'llashni o'rganadilar.

Shuningdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini baholashda faqat yozma testlar bilan cheklanib qolmaslik kerak. Ularning og'zaki nutqi, darsni ingliz tilida olib borish qobiliyati, savol berish madaniyati, o'quvchilar bilan muloqot qila olishi va metodik topshiriqlarni tushuntirish ko'nikmalari ham baholanishi zarur. Buning uchun mikro-darslar, og'zaki taqdimotlar, interaktiv mashg'ulotlar va pedagogik vaziyatlar asosidagi baholash mezonlaridan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini ingliz tilidagi og'zaki nutq asosida rivojlantirish ko'p qirrali metodik jarayondir. Bu jarayonda kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, taqdimotlar, muammoli vaziyatlar va kasbiy muloqotga yo'naltirilgan mashqlar muhim o'rin tutadi. Og'zaki nutq faoliyati talabalarning faqat til ko'nikmalarini emas, balki ularning pedagogik fikrlashi, metodik tayyorgarligi, kasbiy madaniyati va o'qituvchilik faoliyatiga tayyorligini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hymes, D. H. On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected Readings*. Harmondsworth: Penguin Books, 1972. pp. 269–293.
2. Canale, M., & Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. *Applied Linguistics*, Vol. 1, No. 1, 1980. pp. 1–47.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. 4th edition. Harlow: Pearson Longman, 2007.